O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2022 - yil 3 - mart 68-10-212-Q/22 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 26-fevraldagi 138-10-0-Q/22-son qarori ijrosini ta`minlash to`g`risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-fevraldagi “Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmati tashkiliy tuzulmasini va faoliyatini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 62-sonli qarori va Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 26-fevraldagi 138-10-0-Q/22-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmati tashkiliy tuzulmasini va faoliyatini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 62-sonli qarori va Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 26-fevraldagi 138-10-0-Q/22-son qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi 2021-yil 3-fevraldagi PF–6155-son Farmoniga muvofiq nogironlik belgilari aniq ko‘rinib turgan, anatomik nuqsonlari bo‘lgan shaxslarni klinik-funksional ma’lumotlarni olishga doir qo‘shimcha tekshiruvdan o‘tkazmasdan turib, ular nogironligi bo‘lgan shaxs deb topilganda nogironlikni muddatsiz davrga belgilash amaliyotini joriy etish hamda tibbiy-ijtimoiy xizmatning mutlaqo yangi modelini shakllantirish vazifasi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligining Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmati tizimining tashkiliy tuzilmasi;

O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligining

Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasining tuzilmasi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalarining, tumanlararo, tuman (shahar), ixtisoslashtirilgan va pediatriya tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalarining namunaviy tuzilmalari;

zarur asbob-uskunalar bilan jihozlangan davlat tibbiyot muassasalariga bepul tekshiruvlar o‘tkazish uchun biriktirilgan tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari ro‘yxati;

Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasining fuqarolarni tibbiy-ijtimoiy ekspertizadan o‘tkazish hamda ularga nogironlikni belgilash sohasidagi asosiy vazifalari, huquqlarini hamda faoliyatini tashkil etish tartibini nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligining Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi to‘g‘risidagi nizom;

tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalarining fuqarolarni tibbiy-ijtimoiy ekspertizadan o‘tkazish va ularga nogironlikni belgilash sohasidagi asosiy vazifalari, huquqlarini hamda faoliyatini tashkil etish va baholab borish tartibini nazarda tutuvchi Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari to‘g‘risidagi nizom;

fuqarolarni tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalarida ko‘rikdan o‘tkazish uchun qabul qilish va o‘tkazish tartibi, nogironlikka olib keluvchi asosiy kasalliklar ro‘yxati va ushbu kasalliklarda nogironlikni belgilash mezonlari, nogironlik belgilari aniq ko‘rinib turgan, anatomik nuqsonlari bo‘lgan, shuningdek, noxush klinik prognozga ega kasalliklar va asoratlar hamda ko‘rikdan qayta o‘tkazish muddati ko‘rsatilmasdan nogironlik belgilanadigan kasalliklar ro‘yxatini nazarda tutuvchi Fuqarolarni tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalarida ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom;

jabrlanganning kasbiy mehnat layoqati yo‘qotilishi darajasini ekspertizadan o‘tkazishning asosiy mezonlarini, kasblar faoliyati bilan bog‘liq kasalliklari ro‘yxatini, jabrlanganda kasbiy mehnat layoqati yo‘qotilishi darajalari hamda ularni belgilash tartibini nazarda tutuvchi Mehnatda mayib bo‘lgan yoki kasb kasalligiga chalingan shaxslarning kasbiy mehnat layoqati yo‘qotilishi darajasini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizom;

nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturini ishlab chiqishning muddatlari va bosqichlarini, uni ishlab chiqishda nogironligi bo‘lgan shaxs hamda mutaxassislar ishtirokini, dasturni bajarishda bajaruvchi tashkilotlarga qo‘yiladigan talablar hamda unda belgilangan tadbirlarning monitoringini olib borish va bajarish natijalarini baholash tartibini nazarda tutuvchi Nogironligi bo‘lgan shaxsni reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturi to‘g‘risidagi nizom

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan hamda o‘z kuchuni yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlar ro‘yxati tasdiqlanganligi;

Pediatriya tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalarining faoliyati tashkil etilgunga qadar “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga

muvofiq 16–17 yoshdagi bolalarga tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan nogironlik guruhi belgilanganligi hamda ularga “bolalikdan nogironlik” maqomi berilgan muddat mobaynida nafaqa va nogironlik guruhi uchun to‘lov to‘lanishi inobatga olinsin.

3. Viloyat hokimining ayrim qarorlari ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Tuman Tibbiyot birlashmasi (X.Asadov), Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish bo`limi boshlig`i (R.Utegenova) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmati tashkiliy tuzilmasini va faoliyatini tashkil etishga oid normativ-huquqiy xujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2022-yil 8-fevraldagi 62-son qarori va Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 26-fevraldagi 138-10-0-Q/22-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

5. Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish bo`limi (R.Utegenova) manfaatdor bo`lim va tashkilotlar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan meyoriy-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-fevraldagi 62-son qarori va Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 26-fevraldagi 138-10-0-Q/22-son qaroriga muvofiqlashtirsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari I.Dostonov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**

Toshkent tuman hokimining
2022 yil 3 martdagi
68-10-212-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati hokimining o‘z kuchuni yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari RO‘YXATI

1. Viloyat hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tibbiy-mehnat ekspertiza xizmati boshqarish tuzilmasini va faoliyatini tashkil etishi takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2010-yil 2-sentabrdagi 193-sonli qarori haqida” 2010-yil 13-sentabrdagi 228-sonli qarori.

2. Viloyat hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Nogironlarni tibbiy-ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiya qilish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2010-yil 23-dekabrdagi 307-sonli qarori haqida” 2010-yil 31-dekabrdagi 294-sonli qarori.